# INGLIZ TILIDA YOZISH KOMPETENSIYASINI EGALLASH JARAYONIDA LINGVISTIK XUSUSIYATLARNI RIVOJLANTIRISH

**Jumamuratova Muxabbat Azatbayevna**
*Qoraqalpoq davlat universiteti, doktorant*
*E-mail: muxabbat8989@mail.ru*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ingliz tilida yozma nutq kompetensiyasini shakllantirish usullari va vositalari hamda ularning ahamiyati haqida so‘z yuritiladi. Yozma nutq kompetensiyasini qo‘llagan olimlarning fikrlari va ularning yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishga oid qarashlari keltirilgan. Ingliz tilini o‘qitish tamoyillari - bu o‘quv jarayonini tashkil etish qoidalari va uzluksiz ta’lim bosqichlarida chet tillarini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishning garovidir. Yozma nutqni shakllantirish jarayonida psixolingvistik va pedagogik yondashuvlar muhim o‘rin tutishi ko‘rsatib berilgan. Keyingi yillarda yozuv va yozma nutqni nazariy jihatdan o‘rganishga bo‘lgan qiziqish sezilarli darajada ortdi.

**Kalit so’zlar:** kompetensiya, yozma nutq kompetensiyasi, chet til o’qitish metodikasi, psixolingvistik va pedagogik yondashuvlar, metodik printsiplar, chet tili, lingvistik vositalar, audiolingual, audiovizual.

**Abstract**: The present article discusses the methods and tools, and their importance, in developing written language proficiency in English. The present study will explore the application of written language skills and the opinions of researchers on the development of written language skills. The principles of English language teaching are the rules that govern the organisation of the educational process, and they are a guarantee of successful foreign language acquisition at the various stages of continuous education. Psycholinguistic and pedagogical approaches have been shown to play an important role in the process of written language formation. In recent years, there has been a considerable increase in interest in the theoretical study of writing and written language.

**Keywords:** competence, written speech competence, foreign language teaching methodology, psycholinguistic and pedagogical approaches, methodological principles, foreign language, linguistic tools, audiolingual, audiovisual.

**Аннотация:** В статье рассматриваются методы, средства и их значение для развития письменной речевой компетенции в английском языке. Приводятся мнения ученых, применявших письменную речевую компетенцию, и их мнение о развитии письменной речевой компетенции. Принципы обучения английскому языку - это правила организации учебного процесса и залог успешного овладения иностранными языками на этапах непрерывного образования. Важную роль в процессе формирования письменной речи играют психолингвистические и педагогические подходы. В последние годы



ISSN 3030-3907

интерес к теоретическому изучению письма и письменной речи значительно возрос.

**Ключевые слова:** компетентность, письменная речевая компетентность, методика обучения иностранным языкам, психолингвистические и педагогические подходы, методические принципы, иностранный язык, лингвистические средства, аудиолингвистический, аудиовизуальный.

**Annotatsiya.** Hisob-kitoblarga ko‘ra, Yer yuzi aholisining uchdan bir qismi (60 foizi) ingliz tilida so‘zlashadi. Bugungi kunda ingliz tili nafaqat inglizzabon dunyoning, balki muloqot orqali barcha xalqlar va millatlarning tilidir. Ingliz tilini o‘qitish tamoyillari - bu ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish qoidalari va butun hayot davomida ta’lim bosqichlarida chet tilini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishning garovidir.

Chet tillarni o‘qitish metodikasining asosiy tamoyillari Ye.I. Passov (1965-70) tomonidan asoslangan, ammo bu davrgacha Ya.A. Kamenskiy tomonidan taklif qilingan umumdidaktik tamoyillar ustunlik qilgan. Umumiy o‘rta ta’lim bosqichida ingliz tilini o‘qitish ham bir necha tamoyillar asosiga quriladi. Ingliz tilini o‘qitishning lingvistik, didaktik-pedagogik, psixologik-psixolingvistik va sof metodik tamoyillari mavjud. Bu tamoyillar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, o‘qitish va o‘qitishning qo‘yilgan maqsadini amalga oshirishga yordam beradigan faoliyat uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Chet tilini o‘qitish jarayonida qo‘llaniladigan metodikalar tamoyillarning maqsadiga muvofiq tanlanadi va qo‘llaniladi.

Chet tillarni o‘qitish metodikasiga lingvodidaktik-pedagogik tamoyillarni joriy etish J.Jalolov, U.Hoshimov, I.Yoqubov, T.Q.Sattorov, L.T.Ahmedova va boshqalar tomonidan boshlangan. Ushbu tamoyillar xorijiy olimlar, jumladan, Yu.A. Kamenskiy, L.S. Vgotskiy, L.V. Shcherba, I.V. Raxmanov, A.S. Shklyayeva, G.Yu. Kolesnikova va boshqalarning ko‘p yillik tadqiqotlari natijasida aniqlangan. Vedel. L.L.Bim, A.N.Leontev, R.K.Minyar-Beloruchev, Yu.I.Passov, I.A.Zimnyaya, N.D.Galskiy, N.I.Gez, Yu.K.Babanskiy, A.V.Xutorskoy, S.Tornberi, G.Uells kabi olimlarning tadqiqotlarida ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etilgan.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

"Kompetensiya" atamasini birinchi bo‘lib N.Xomskiy [1] qo‘llagan bo‘lib, u til tizimi haqidagi bilimlarga egalik, ya’ni qobiliyatni ifodalovchi "lingvistik kompetensiya" ma’nosida ishlatgan. Bundan tashqari, N.Xomskiy taklif qilgan nazariy sxemaga ko‘ra, "lingvistik kompetensiya" tushunchasi faqat tilning nazariy asoslarini qamrab oladi, autentik nutq ssenariylarida uni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan amaliy ko‘nikmalarni istisno qiladi. Shuni ta’kidlash kerakki, olimlar yozma nutq kompetensiyasini tashkil etuvchi bir nechta asosiy komponentlarni



ISSN 3030-3907

ajratib ko‘rsatadilar. Xususan, K.Xayland yozma nutq kompetensiyasi grammatik bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, yozish jarayoni, janr xususiyatlari va muloqot maqsadlarini ham o‘z ichiga olishini ta’kidlaydi (Hyland, 2002).

Tadqiqot sohasida yozma nutq kompetensiyasini aniqlash masalasi munozaralarga sabab bo‘ldi va bir qator olimlar, xususan, Brayan Palmer o‘z qarashlarini ilgari surdi. Hukmron qarashlardan biri yozma nutq kompetensiyasini "fikrni yozma shaklda aniq va mantiqiy ifodalash qobiliyati" deb ta’riflaydi. Muallifning fikricha, o‘quvchilar yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali ham o‘z tafakkurlarini shakllantiradilar [3; 245-270].

S.D. Kraskaning fikri hukmron kayfiyat bilan mos keladi, kommunikativ yondashuv yozma nutq kompetensiyasining rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi degan fikrni ta’kidlaydi. U o‘quvchilar real sharoitlarda yozma muloqotdan foydalanadigan muhitda bo‘lishlari kerakligiga ishonadi [4]. Yozma nutqni shakllantirish jarayonida psixolingvistik va pedagogik yondashuvlar muhim rol o‘ynaydi. Yozuv ko‘nikmalarini takomillashtirish o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash, motivatsiyani oshirish va individual yondashuvni qo‘llash orqali amalga oshirilishi mumkin.

*Kommunikativ yondashuv*: L.S. Vigotskiy (1978) ta’kidlaganidek, ta’lim jarayoni ijtimoiy muloqot asosida qurilishi kerak [5].

*Kognitiv yondashuv:* M.Swain (2019) tomonidan taklif qilingan yozishni kognitiv jarayon sifatida tushunish o‘quvchilarning intellektual o‘sishi yozma til bilan ishlashda osonlashishi haqidagi g‘oyani ta’kidlaydi.

*Interfaol yondashuv*: G. Bak (2023) yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun o‘quvchilar bir-birlari bilan muloqot qilishlari kerakligini ta’kidlaydi.

Metodik adabiyotlarda "*kompetensiya*" tushunchasi bilan bog‘liq ko‘plab atamalar mavjud, jumladan, lingvistik kompetensiya, diskursiv kompetensiya, pragmatik kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, strategik kompetensiya, ijtimoiy-madaniy kompetensiya va boshqalar [7]. T.V. Xilchenko [8; 139-142] yuqoridagi kompetensiyalar ro‘yxatiga kasbiy kompetensiyani kiritishni taklif qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot metodologiyasi chet tillarni o‘qitishning zamonaviy metodikasi muammolari, turli pedagogik metodlar va zamonaviy metodlar talqiniga asoslangan. Tadqiqotning asosiy usuli sifatida fikr va usullarni tizimli tasniflash, tahlil qilish va taqqoslashdan foydalanilgan

## MUHOKAMA VA NATIYJALAR



ISSN 3030-3907

Lingvistik kompetensiya leksik birliklar va grammatik qoidalardan foydalanish qobiliyati bilan belgilansa, diskursiv kompetensiya yozma matn yaratish va uni to‘g‘ri talqin qilish qobiliyati bilan tavsiflanadi.

Pragmatik kompetensiya qo‘yilgan yoki ko‘zlangan maqsadga muvofiq nutqiy muloqotni tashkil etish va kerakli ma’lumotlarni olish yoki uzatish uchun til vositalaridan to‘g‘ri foydalanish qobiliyati sifatida ta’riflanadi [9; 47].

Strategik kompetentlik muloqot jarayonida qiyinchiliklar yuzaga kelganda nutqiy vaziyatga tegishli o‘zgartirishlar kiritish orqali murakkab vaziyatdan chiqib keta olish qobiliyati sifatida belgilanadi. Xususan, ishtirokchi so‘zning kontekstdagi ma’nosini tushunish, noto‘g‘ri til qo‘llanishini anglagan holda mos variantni aniqlash va zarur bo‘lganda, yozma yoki og‘zaki kontekstni mo‘ljallangan ma’noga moslashtirish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.

T.V. Xilchenkoning kasbiy kompetensiya masalasidagi pozitsiyasiga muvofiq, fakultetda "Ingliz filologiyasi" ta’lim yo‘nalishi talabalarining yozma nutq kompetensiyasini shakllantirish jarayonida ularning kasbiy yozma nutq kompetensiyasini shakllantirishga alohida e’tibor qaratish lozim, deb hisoblaymiz. Bu esa filologiya fakulteti talabalarining bo‘lajak kasbiga xos ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan yozma matn tuzish va o‘z kasbiga oid zarur ma’lumotlarni xorijiy tildagi yozma manbalardan olish qobiliyatini belgilaydi. Filologiya fakulteti talabalarida yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beradigan pedagogik omillarni ko‘rib chiqishda til o‘rganuvchilarning yoshi, yozish jarayoniga ijodiy yondashuv, o‘rganilayotgan chet tilining talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatidagi rolini hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Yosh omili eng muhim pedagogik omillardan biridir, chunki turli yosh guruhlarida chet tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish, xohish va maqsad sezilarli darajada farq qiladi. Shunga ko‘ra, yozma va og‘zaki nutq malakalarini o‘stirish metod va usullari, o‘quv jarayonini tashkil etish, yozma va og‘zaki nutqqa o‘rgatish vositalari ham sezilarli darajada o‘zgarib turadi. Ko‘p hollarda bu parametrlarni aniqlash til o‘rganuvchining yoshiga bog‘liq bo‘ladi.

Masalan, chet tilini o‘rganish kontekstida o‘quvchilarning o‘qish yoki eshitish orqali qabul qilishda duch keladigan ma’lumotlarni qayta ifodalash bilan shug‘ullanishlari kuzatilgan. Dastlab o‘quvchilar o‘qigan yoki eshitgan ma’lumotlarini tushunib olishlari kerak. Shundan so‘ng uni yozma ravishda ifodalashga harakat qilishlari kerak. Katta yoshdagi til o‘rganuvchilar eshitgan yoki o‘qigan matnni mexanik takrorlashdan farqli o‘laroq, uni o‘z so‘zlari bilan ifodalashga, unga ijodiy yondashishga intiladilar.

Shuning uchun o‘quvchilarga yozma ma’lumotlarni o‘z so‘zlari bilan bayon qilishni talab etadigan topshiriqlar berish tavsiya etiladi. Bu yuqori sinf



ISSN 3030-3907

o‘quvchilarining bunday harakatlarga moyilligidan kelib chiqadi. Bu turdagi topshiriqlar erkin insho (esse) shaklida bo‘lishi mumkin, unda o‘quvchilar o‘z fikrlari asosida qo‘yilgan muammoning yechimini ifodalashlari kerak.

Keyingi yillarda yozuv va yozma nutqni nazariy jihatdan o‘rganishga bo‘lgan qiziqish sezilarli darajada ortdi. Ushbu sohadagi ilmiy tadqiqotlar sohasida L.Ya. Akromova va L.R. Axmetovalarning hissasi katta.

L.Yu. Akromovaning tadqiqoti O‘zbekiston tibbiyot oliy o‘quv yurtlari talabalarining rus tilidagi yozma nutqini rivojlantirish muammosiga bag‘ishlangan bo‘lib, uning asosiy maqsadi ilmiy matnlardan foydalanish asosida yozma kompetensiyani shakllantirishdan iborat [10].

L.R. Axmetovaning tadqiqoti ixtisoslik fakultetlarida tahsil olayotgan talabalar va aspirantlarning yozma nutqini rivojlantirishni qamrab oladi. Bu sohadagi ilmiy tadqiqotlarning maqsadi yozma nutq ko‘nikmalarini takomillashtirishga yordam beradigan usul va yondashuvlarni aniqlashdan iborat.

Bu, ayniqsa, Internet yozma ifoda imkoniyatlari doirasini chuqur kengaytirgan zamonaviy sharoitda yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Binobarin, yozuv muloqot vositasi sifatida tobora ko‘proq qiziqish uyg‘otayotgan mavzuga aylandi. Biroq internet foydalanuvchilarining yozma matnlarida yozuv qoidalari va fikrni uslubiy ifodalash bilan bog‘liq ko‘plab xatolarni aniqlash mumkin.

Bu holat til o‘rganuvchilarda lingvistik vositalar va til me’yorlari asosida mantiqiy ifodalash ko‘nikmalari hali yetarli darajada shakllanmaganligidan dalolat beradi. Binobarin, yozuv va yozish ko‘nikmalarini rivojlantirishga turlicha yondashish va bu jarayonni tizimli ravishda tashkil etish tavsiya etiladi.

Filologiya fakultetlari talabalarining ingliz tilida yozma nutq kompetensiyasini shakllantirishning didaktik omillarini anglash uchun, avvalo, didaktik vositalarning vazifasini aniqlash, yozma nutqni rivojlantirishga qaratilgan vositalarni tasniflash va ulardan samarali foydalanish metodikasini belgilash zarur.

"Didaktika" atamasi ta’lim yoki o‘qitishning har qanday shakli sifatida ta’riflanadi va bu o‘rinda u yozma nutqni rivojlantirish usullarini anglatadi. Didaktik yondashuv ham uch xil turga bo‘linadi: vizual, audiolingval va audiovizual. Ko‘rgazmali qurollar matn, grafik, diagramma, jadval, rasm kabi turli vositalardan iborat bo‘lib, ulardan yozma nutqni o‘stirishda foydalaniladi. Audiolingval metodlar o‘quvchilarda tilni idrok etish, eshitish va yozma nutqda ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Audiovizual usullar yozma nutqni rivojlantirish uchun audio va video materiallarning samarali integratsiyasini nazarda tutadi.



ISSN 3030-3907

Demak, bu metodikalardan o‘quvchilarning individual xususiyatlari va ta’lim oldiga qo‘yilgan talablarga mos ravishda foydalanish muhim metodik yo‘nalish hisoblanadi.

O‘quvchilarning yozma-nutqiy kompetensiyasini shakllantirish sharoitida didaktik vositalarni tanlash o‘quv maqsadlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. Boshqacha aytganda, yozuvga yoki yozma nutqqa o‘rgatish maqsadlariga tabaqalashtirilgan holda yondashish tavsiya etiladi. Bu jarayonda didaktik vositalarni kompleks tasniflash nihoyatda muhim bo‘lib, ularni ikki asosiy qismga ajratish mumkin.

1. Yozuvga o‘rgatishning didaktik vositalari termini o‘quvchilarning orfografik va kalligrafik qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodlarni ifodalash uchun qo‘llaniladi. Bunday usullarga mashq daftari, mustaqil grafik mashqlar, avtomatlashtirilgan yozuv platformalaridan foydalanish kiradi.

2. "Didaktik" atamasi o‘quvchilarning o‘z fikrlarini yozma ravishda aniq, mantiqiy va grammatik jihatdan to‘g‘ri bayon qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan yozuvga o‘rgatish usullarini ifodalash uchun ishlatiladi. Bunda maxsus fanlar bo‘yicha matnlar, esse yozish dasturlari, tahliliy va abstrakt ishlarni tayyorlashni osonlashtiruvchi elektron platformalardan foydalaniladi.

Yozuv va yozma nutq kompetensiyasi pedagogikasida qo‘llaniladigan texnik vositalar ham tegishlicha tasniflanishi zarur. Masalan, yozuv ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun maxsus dasturiy ta’minot va interfaol taqdimotlardan foydalanish mumkin bo‘lsa, yozma nutq kompetensiyasini shakllantirish uchun onlayn tahrirlash vositalari, til korporatsiyalari va avtomatik tahlil tizimlari samarali hisoblanadi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, yozuv va nutq kompetensiyasini rivojlantirishda kompleks yondashuvni amalga oshirish o‘quvchilarning yozish va yozma nutq ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuningdek, mazkur metod o‘quv jarayonida o‘qituvchi va talabaning faoliyatini samarali tashkil etishga yordam berishi isbotlangan.

## XULOSA VA TAKLIF

Demak, filologiya fakulteti talabalarida ingliz tilida yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirish tizimli va ilmiy yondashuvni talab etadi. Bu metodikadan to‘g‘ri foydalanilsa, o‘quvchilarning erkin fikrlash va yozma shaklda yozish qobiliyati rivojlanadi.

Ingliz tilida yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirish, umuman olganda, talabalarga lingvistik va kommunikativ ko‘nikmalarni o‘rgatishga qaratilgan kompleks pedagogik yondashuvni talab qiladi. Ushbu yondashuv kompetensiyaviy yondashuv va xalqaro standartlarga asoslangan ta’lim tizimini birlashtiradi.



ISSN 3030-3907

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Кудряшова, О.В. Компоненты коммуникативной компетенции при обучении письменной речи. // «Вестник ЮУрГУ», 2007, № 15.
2. Hyland, K. (2003). Second Language Writing. Cambridge University Press.
3. Palmer, B. (1994). Writing and Thinking: The Role of Writing in Cognitive Development. Educational Psychology Review, 6(3), 245-270.
4. Krashen, S. D. (1984). Writing: Research, Theory, and Applications. Pergamon Press.
5. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
6. Swain, M. (1995). Three Functions of Output in Second Language Learning. In Cook, G., & Seidlhofer, B. (Eds.), Principle & Practice in Applied Linguistics. Oxford University Press.
7. Buck, G. (2001). Assessing Listening. Cambridge University Press.
8. Хильченко Т.В. Организационные формы самостоятельной учебной деятельности студентов по совершенствованию иноязычной письменной речи. // Теория и практика развития современного высшего профессионального образования: материалы междунар. науч.- практ. конф. - Шадринск, 2006. Ч. 2. -С. 139-142.
9. Саттаров Т. Бўлажак чет тил ўқитувчисининг услубий омилкорлигини шакллантириш технологияси. – Т.: ТДЮИ нашриёти, 2003. –47-б.
10. Акрамова Л.Ю. Ўзбекистондаги тиббиёт институтлари талабаларининг рус тилидаги ёзма нутқини ўстиришни илмий матнлар асосида олиб боришни тадқиқ қилиш. / Автореферат. Обучение письменной речи на базе научного текста по специальности медицинских вузов Узбекистана. - Т., 2001.



ISSN 3030-3907